

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

No1

2026
yanvar



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX
COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 194 sahifa.
2026-yil, yanvar

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afurovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ И ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА УЗБЕКИСТАНА.....	26
Каракулов Фарход Зайпудинович	
TRANSPORT TIZIMIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH USULLARI	33
Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUARUVCHI KORXONALARNING SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI BAHOLASH	38
Achilov Ilmurad Nematovich	
TURIZM OBYEKTLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	45
Toshtemirov Xojiakbar Qahramon o'g'li	
КАЧЕСТВО КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ БАНКОВ УЗБЕКИСТАНА ЧЕРЕЗ ПРИЗМУ ПРОБЛЕМНЫХ КРЕДИТОВ	51
Алиева Сусанна Сейрановна	
ВЛИЯНИЕ ЛИБЕРАЛИЗАЦИИ И РЫНОЧНЫХ МЕХАНИЗМОВ НА РАЗВИТИЕ ОВЦЕВОДСТВА И КАРАКУЛЕВОДСТВА В ГЛОБАЛЬНОМ МАСШТАБЕ	58
Нуриллаев Жамолiddин Ярашевич	
BARQAROR INVESTITSİYALAR: IQTISODIYOTDAGI ROLI VA DOLZARBLIGI	65
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	
KRAUDFANDING – BARQAROR RIVOJLANISHNI AMALGA OSHIRISH UCHUN INNOVATSION MOLIYAVIY VOSITA SIFATIDA.....	71
Ashurova Oltin Yuldashevna	
FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIYAVIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI.....	78
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI UCHUN BARQAROR BREND QIYMATINI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI	84
Bekmurod Davlatmurotovich Ollaberganov, Zilola Baxramovna Abdikarimova	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA KORPORATIV BOSHQARUVNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	89
Atajanov Kamal Atavayevich	
AVTOTRANSFORMATORLARNING TASHQI MAGNIT MAYDONINING MATEMATIK MODELI	96
Pirmatov Nurali Berdiyrovich, Bekishev Allabergen Yergashevich, Baxriddinov Begzod Alibek o'g'li	
O'ZBEKISTON VA JAHON AMALIYOTIDA BUDJET MUASSASALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING RIVOJLANISHIGA RETROSPEKTIV TAHLIL	101
Berdiyev Toshkenboy Panjiyevich	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: RISKGA ASOSLANGAN YONDASHUV VA AMALIY MEKANIZMLAR	108
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
TIJORAT BANKLARI DEPOZIT BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	113
Shayxiev Boburbek Ulug'bekovich	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA OLIY TA'LIM TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING KONSEPTUAL MODELI.....	120
Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li	



GEODEZIYA VA GIS TEXNOLOGIYALARINING INTEGRATSIYASI.....	125
Ziynura sabirova	
RESPUBLIKADA UY-JOY QURILISHI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGINING O'RNl	129
Otajonov Tohirjon Xo'janazar o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЙ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА АО «УЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙУЛЛАРИ» В УСЛОВИЯХ СТРУКТУРНЫХ РЕФОРМ.....	133
Кадилова Шарофат Амоновна	
KASBLARNI MODERNIZATSIYA QILISH VA MEHNAT BOZORINING YANGI MODELINI BARPO ETISH	139
Ruziyev Oybek Abdumuminovich, Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL BIZNESINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	143
Saidov Dilshodbek Razzakovich	
QISHLOQ JOYLARIDA MEHNAT RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI	148
Amaniyazova Rayhan Bayniyazovna	
ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ЭКСПЛУАТАЦИОННОЙ УСТОЙЧИВОСТИ МАЛОМОЩНЫХ СЕТЕВЫХ СОЛНЕЧНЫХ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ СТАНЦИЙ В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА	153
Кудратов Афзалхужа Рустамович, Далмурадова Наргиза Нуриллаевна, Шогучкаров Санжар Кодирович	
MINTAQADA PARRANDACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	161
Qarshiyev Obidjon Egamberdiyevich	
INNOVATSION BANK EKOTIZIMLARINING TIJORAT BANKLARI RIVOJLANISHIDAGI ROLI	165
Aliyev Hasan Rayimjonovich	
ANALYSIS OF FACTORS OF INTENSIVE ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN	171
Sharipov Kamil	
SUN'IY INTELLEKT – TO'RTINCHI SANOAT INQILOBINING ASOSI.....	176
Kalonov Muxiddin Baxriddinovich	
BOSHQARUV HISOBIDA BUDJETLASHTIRISH VA UNGA OID YONDASHUVLAR.....	182
B.Yu.Maxsudov	
KORXONALARDA MOLIVAVIY BOSHQARUVNING TASHKILIIY VA IQTISODIY MASALALARI.....	187
Jumayev Samariddin Ziyodullaevich	



KORXONALARDA MOLIYAVIY BOSHQARUVNING TASHKILIY VA IQTISODIY MASALALARI



Jumayev Samariddin Ziyodullaevich

Termiz davlat universiteti

mustaqil izlanuvchi

E-mail: sam.samar@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada korporativ moliyaviy boshqaruv jarayonlari va moliya bozori tarkibi, korporativ moliyaning mazmun-mohiyati hamda uning ahamiyati bo'yicha iqtisodchi olimlarning fikr-mulohazalari o'rganilgan. Korporativ moliyani boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini tahlil qilishda foydalanilgan usullar va metodlar yoritib berilgan. Shuningdek, korporativ tuzilmalarda moliyaviy boshqaruvning funksiyalari hamda ularning afzalliklariga atroflicha to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy boshqaruv, korporativ moliya.

Abstract. This article examines corporate financial management processes and the structure of the financial market, as well as the essence and significance of corporate finance and the views of economists on this issue. The methods and approaches used to analyze the organizational and economic mechanisms of corporate finance management are highlighted. In addition, the functions of financial management in corporate structures and their advantages are discussed in detail.

Keywords: financial management, corporate finance.

Аннотация. В данной статье исследуются процессы корпоративного финансового управления и структура финансового рынка, а также сущность, значение корпоративных финансов и взгляды экономистов по данному вопросу. Освещены методы и подходы, использованные при анализе организационно-экономического механизма управления корпоративными финансами. Кроме того, подробно рассмотрены функции финансового управления в корпоративных структурах и их преимущества.

Ключевые слова: финансовое управление, корпоративные финансы.

KIRISH

Ma'lumki, moliya davlatning vujudga kelishi hamda uning moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojining bosqichma-bosqich rivojlanishi jarayonida, tovar-pul munosabatlari sharoitida shakllanib kelgan. Moliya — bu pul munosabatlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan iqtisodiy tizim bo'lib, u pul fondlarini shakllantirish va jamlash, taqsimlash hamda ulardan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar majmuasini o'z ichiga oladi.

Korporativ moliya esa korporativ tuzilmalar faoliyati jarayonida vujudga keladigan moliyaviy munosabatlarni ifodalab, korxona va tashkilotlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Ushbu munosabatlar korporativ tuzilmalarning moliyaviy resurslarini shakllantirish, ularni samarali taqsimlash va oqilona boshqarish orqali namoyon bo'ladi.

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlash uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslarni sog'lomlashtirishga qaratilgan munosabatlar tizimini takomillashtirish, shuningdek, ushbu resurslardan samarali va oqilona foydalanish ustidan uzluksiz nazoratni amalga oshirish moliyaviy boshqaruvning asosiy mazmunini tashkil etadi. Shu bois moliyaviy boshqaruv iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi muhim boshqaruv funksiyasi sifatida e'tirof etiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Korporativ moliyani boshqarish va uni samarali tashkil etishda iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanish, aholi daromadlarini oshirish, tovar-pul munosabatlarini izchil rivojlantirish, shuningdek, moliyaviy resurslarni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonlarini tizimli ravishda amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonlar moliyaviy boshqaruvning uzviy tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Jamiyat taraqqiyotining zamonaviy bosqichida korporativ moliyani boshqarish alohida strategik ahamiyatga ega bo'lib, u korporativ tuzilmalarning raqobatbardoshligini oshirish va uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Korporativ tuzilmalarda boshqaruvning kollektiv (kollegial) shaklda amalga oshirilishi, nazorat funksiyalarining mavjudligi hamda har bir boshqaruv organining vakolatlari aniq belgilanganligi korporativ moliyaviy boshqaruv tizimining samaradorligini oshiradi.

Korporativ tuzilmalarda moliyaviy faoliyatning amalga oshirilishi pul fondlarining shakllantirilishi, taqsimlanishi va ulardan foydalanilishi bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy munosabatlarda namoyon bo'ladi. Iqtisodchi olimlar tomonidan korporativ moliya va uni samarali boshqarishga doir ishlab chiqilgan nazariy yondashuvlar moliyaviy qonunchilikni takomillashtirish va davlat fiskal siyosatini shakllantirish uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Korporativ tuzilmalarda moliyaviy boshqaruv samaradorligini ta'minlash ularning faoliyatini moliyalashtirishning turli manbalaridan oqilona foydalanish orqali amalga oshiriladi. Xususan, S.E. Elmirzayevning ilmiy qarashlariga ko'ra, korporativ moliyani boshqarish tizimining samarali faoliyat yuritishi huquqiy, tashkiliy, metodik, axborot, texnik va dasturiy ta'minot bilan bir qatorda, malakali kadrlar bilan ta'minlanganlik darajasiga ham bevosita bog'liqdir [1].

M. Dallochio fikricha, naqd pul va boylik korporativ moliyaning asosiy tushunchalaridan hisoblanib, ularni aniq farqlash hamda ularning o'zaro bog'liqligini to'g'ri anglash korporativ moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi [3].

Umuman olganda, korporativ moliyaviy boshqaruv nazariyasi va uning amaliyoti jamiyat taraqqiyoti talablaridan kelib chiqib, doimiy ravishda rivojlanib borish tendensiyasiga ega. Korporativ moliya tizimining samarali faoliyat yuritishi va boshqaruv tizimining quyi bo'g'inlarga oqilona ta'sir ko'rsatishi zamonaviy, aniq prinsiplarga asoslangan moliyaviy boshqaruv metodologiyasidan foydalanishni taqozo etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada moliyaviy boshqaruvning tashkiliy va iqtisodiy masalalarini hamda korporativ moliyaviy boshqaruvni tashkil etish jarayonlarini ilmiy asosda o'rganish maqsadida qiyosiy tahlil, analiz va sintez, deduksiya, ilmiy abstraksiyalash kabi umumilmiy va maxsus tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Mazkur metodlar korporativ moliyani boshqarish tizimining nazariy asoslarini aniqlash, mavjud yondashuvlarni baholash hamda ularning amaliy samaradorligini tahlil qilish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakat moliya tizimining asosiy maqsadi makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdan iborat bo'lib, bunda korporativ moliyani samarali boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Korporativ moliyani boshqarish korxona faoliyatining barcha bosqichlarida moliyaviy resurslarni shakllantirish, jamlash va ulardan oqilona foydalanishga qaratilgan ilmiy asoslangan boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonidir. Ushbu jarayonning ustuvor vazifasi barqaror moliyaviy holatga erishish hamda uzoq muddatli moliyaviy natijalarni ta'minlash orqali tashkilotning moliyaviy xavfsizligini mustahkamlashdan iboratdir.

Korporativ moliyani boshqarish natijasida kompaniya qiymatining oshishi, avvalo, foydaning ko'payishi hamda ushbu foydadan samarali foydalanish mexanizmlarining takomillashuvi orqali namoyon bo'ladi. Bu holat korporativ tuzilmalarning investitsion jozibadorligini oshirish va ularning bozor sharoitida barqaror faoliyat yuritishini ta'minlaydi.

Moliyaviy boshqaruv alohida iqtisodiy tuzilmalarning moliyaviy faoliyatini ongli ravishda boshqarish jarayoni bo'lib, uning asosiy maqsadi moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishdan iboratdir. Shu jihatdan, korporativ moliyani boshqarish tashkilotning umumiy iqtisodiy va moliyaviy faoliyatini boshqarish tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Korporativ moliyani boshqarish doirasi asosan moliyaviy oqimlarning kirimi va chiqimini shakllantirish, ularni boshqarish hamda ushbu jarayonda yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlarni qamrab oladi. Mazkur jarayonda pul mablag'lari asosiy boshqaruv instrumenti sifatida namoyon bo'lib, ular orqali moliyaviy resurslarning taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi, shuningdek, ularning aylanish jarayoni tartibga solinadi. Natijada tashkilotning moliyaviy natijalari va moliyaviy barqarorlik darajasi baholanadi.

Korporativ moliyani boshqarish tizimi murakkab jarayon bo'lib, u boshqariladigan obyektlar va boshqaruvchi



subyektlardan iboratdir. Moliyaviy boshqaruv obyektlari sifatida moliyaviy munosabatlarning turli shakllari, moliyaviy resurslarni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonlari namoyon bo'lsa, moliyaviy boshqaruv subyektlari ushbu jarayonlarni amalga oshiruvchi boshqaruv organlari sifatida ishtirok etadi.

Hozirgi kunda iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash maqsadida moliyaviy tuzilmalar faoliyatini samarali tashkil etishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, moliyaviy boshqaruvning zamonaviy standart va usullarini joriy etish, ularning funksional vazifalarini takomillashtirish, byudjet taqchilligini oldini olish hamda daromadlar bazasini kengaytirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda (1-jadval).

1-jadval. Korporativ moliyaviy boshqaruvning subyektlari va obyektlari tuzilishi [7]


Korxona moliyasining boshqaruv quyi tizimi (subyekti)			
Tashkiliy boshqaruv tuzilmasi: moliya xizmati; asosiy moliyaviy bo'linmalar; moliyaviy xodimlar.	Moliyaviy instrumentlar: boshqaruv usullari; moliyaviy modellar; rejalashtirish va prognozlash mexanizmlari.	Korporativ moliya axborot bazasi: buxgalteriya va moliyaviy hisobotlar; statistik va analitik ma'lumotlar; ichki va tashqi axborot manbalari.	Moliyaviy boshqaruvning texnik vositalari: axborot-kommunikatsiya texnologiyalari; dasturiy ta'minot; avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari.

Korporativ moliyaning boshqariladigan quyi tizimi (obyekti)		
Moliyaviy munosabatlar: ✓ yetkazib beruvchilar va xaridorlar bilan; ✓ barcha darajadagi byudjetlar bilan; ✓ mulkdorlar (aksiyadorlar) bilan; ✓ korxona xodimlari bilan; ✓ moliya institutlari bilan (banklar, sug'urta kompaniyalari, investitsiya kompaniyalari va boshqalar).	Moliyaviy resurslar (aktivlar): ✓ asosiy vositalar; ✓ nomoddiy aktivlar; ✓ aksiyalar; ✓ kutilayotgan tushumlar; ✓ pul aktivlari.	Moliyaviy manbalar: ✓ o'z kapitali (aksiyadorlar va ta'sischi mablag'lari); ✓ qarz mablag'lari; ✓ kreditlik qarzlari.

Korporativ tuzilmalarda faoliyatning davomiyligi va uzluksizligi moliyaviy boshqaruv tizimi bilan bevosita bog'liqdir. Moliyaviy boshqaruv jarayonida, avvalo, faoliyatni zarur moliyaviy resurslar bilan ta'minlash darajasi hamda ushbu faoliyatni amalga oshirish uchun talab etiladigan moliyaviy mablag'larning o'z vaqtida va yetarli hajmda jalb etilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan, korporativ tuzilmalar tomonidan moliyaviy munosabatlarga kirishiladigan subyektlarni aniq belgilab olish zarur hisoblanadi. Chunki har bir moliyaviy munosabat pul mablag'larining kirimi yoki majburiyatlar vujudga kelishi natijasida ularning chiqimi bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Ushbu jarayonlar moliyaviy oqimlarning barqarorligini ta'minlash va moliyaviy risklarni samarali boshqarish imkonini beradi.

Umuman olganda, korporativ tuzilmalar moliyaviy munosabatlarga kirishadigan subyektlar tizimi turli iqtisodiy manfaatlariga ega bo'lgan ishtirokchilarni qamrab oladi. Ular o'zaro moliyaviy majburiyatlar va huquqlar asosida hamkorlik qilgan holda korporativ faoliyatning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi (1-rasm).



1-rasm. Korporativ tuzilmalarning moliyaviy munosabatlarga kirishadigan subyektlari [2]

Korporativ tuzilmalarning boshqa iqtisodiy subyektlar bilan moliyaviy munosabatlari aniq belgilangan moliyaviy maqsadlar asosida shakllanadi. Ushbu jarayonda korporativ tuzilmalar aksiyadorlar, davlat organlari, yuqori turuvchi tashkilotlar, tijorat banklari, sug'urta kompaniyalari, lizing kompaniyalari, fond birjalari hamda investitsiya institutlari bilan moliyaviy munosabatlarga kirishadi. Mazkur munosabatlar moliyaviy resurslarni jalb qilish, ularni samarali taqsimlash va oqilona boshqarish orqali moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Natijada korporativ tuzilmalarda moliyaviy ta'minot darajasi yaxshilanadi va ularning barqaror faoliyat yuritishi ta'minlanadi.

Iqtisodiy subyektlar moliyasining shakllanish xususiyatlariga ko'ra moliya tizimi ikki asosiy sohaga ajratiladi, ya'ni markazlashgan va markazlashmagan moliya tizimlariga. Markazlashgan moliya sohasi tarkibiga davlat moliyasi, xususan, davlat tasarrufidagi byudjet mablag'lari hamda byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar kiradi. Markazlashmagan moliya sohasi esa korxona va tashkilotlar ixtiyorida bo'lgan moliyaviy resurslarni qamrab oladi va ularning mustaqil moliyaviy faoliyatini ta'minlaydi.

Moliyaviy boshqaruv jarayonini samarali amalga oshirishda qo'llaniladigan asosiy metod va shakllar quyidagilardan iborat:

- moliyaviy rejalashtirish;
- bashoratlash (prognozlashtirish);
- dasturlashtirish;
- moliyaviy tartibga solish;
- moliyaviy nazorat;
- moliyaviy qonunlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va qabul qilish;
- moliyaviy resurslarni jalb etish metodlari tizimi.



2-rasm. Moliyaviy boshqaruv tizimi [4]



Moliyaviy boshqaruv tizimi deganda turli darajalarda shakllangan iqtisodiy aloqalar bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy bo'g'inlar majmuasi tushuniladi. Ushbu tizim moliyaviy resurslarning shakllanishi, taqsimlanishi va ulardan foydalanish jarayonlarini muvofiqlashtirish orqali korxona va korporativ tuzilmalarning barqaror faoliyat yuritishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Korporativ moliya tamoyillarini amaliyotga tatbiq etishning o'ziga xos shakl va usullari, shuningdek, uning vazifa hamda funksiyalari korxonaning moliyaviy siyosati bilan belgilanadi. Moliyaviy siyosat doirasida quyidagi asosiy yo'nalishlar ajratib ko'rsatiladi:

- hisob siyosati;
- kredit siyosati;
- dividend siyosati.

Hisob siyosati korxonalarda buxgalteriya hisobini yuritish variantini tanlash hamda amaldagi buxgalteriya standartlariga muvofiq ravishda moliyaviy hisobotlarni shakllantirish jarayonini belgilaydi. Kredit siyosati doirasida tijorat kreditlarini berish, shuningdek, banklarning qisqa va uzoq muddatli moliyaviy resurslarini jalb etish masalalari hal etiladi. Dividend siyosati esa aksiyadorlar manfaatlarini ta'minlash bilan bir qatorda, ijro organi faoliyati natijalari va kreditorlar manfaatlarini o'rtasida muvozanatni saqlashga xizmat qiladi.

Korporativ moliyaviy boshqaruvda korporativ tuzilmalarning moliyaviy ta'minotini mustahkamlashda moliya bozori orqali investitsiyalarni jalb etish samarali mexanizm hisoblanadi. Korporativ tuzilmalar tomonidan qimmatli qog'ozlarni emissiya qilish va ularni belgilangan tartibda joylashtirish asosan fond bozori orqali amalga oshiriladi. Bunda investorlar fond bozori vositasida joylashtirilgan qimmatli qog'ozlarni xarid qilish orqali korporativ tuzilmalar bilan moliyaviy munosabatlarga kirishadilar.

Xorijiy rivojlangan mamlakatlar fond birjalari moliyaviy instrumentlarning yuzlab turlaridan faol foydalanilmoqda. Mamlakatimiz fond bozorida esa asosan oddiy va imtiyozli aksiyalar hamda qisman korporativ obligatsiyalar muomalada mavjud. Moliyaviy boshqaruv samaradorligini yanada oshirish va moliyaviy ta'minotni mustahkamlash maqsadida xorijiy fond birjalari tajribasiga tayangan holda milliy iqtisodiyot rivojiga xizmat qiluvchi turli moliyaviy instrumentlarni joriy etish zarur hisoblanadi. Bu esa investorlar oqimini ko'paytirish va kapital bozorining jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda global iqlim o'zgarishlari sharoitida barqaror va yashil taraqqiyotga intilish jarayonlari jadallashib, yashil obligatsiyalarni chiqarish, joylashtirish hamda jalb qilingan mablag'larni ekologik toza va barqaror loyihalarga yo'naltirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yashil obligatsiyalar bozori barqaror loyihalarni moliyalashtirishda muhim moliyaviy instrument sifatida shakllanib bormoqda.

Jahon iqtisodiy forumining 2023-yilgacha samarali energiyaga o'tishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha hisobotiga ko'ra, 2020-yilda yashil obligatsiyalar chiqarishga 270 milliard AQSh dollari yo'naltirilgan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o'zgarishi bo'yicha hukumatlararo kengashi (IPCC) hisob-kitoblariga ko'ra, Parij kelishuvi doirasida global harorat oshirishini 1,5 °C darajada cheklash maqsadiga erishish uchun 2050-yilgacha har yili 3–6 trillion AQSh dollaridan ortiq investitsiyalar talab etiladi [9].

Mazkur yirik moliyaviy ehtiyojlarni qoplash maqsadida hukumatlar va korporativ tuzilmalar tobora ko'proq yashil obligatsiyalar kabi zamonaviy moliyaviy instrumentlardan foydalanmoqdalar. Shu bilan birga, iqtisodiyotning jadal rivojlanishi sharoitida korporativ tuzilmalarda moliyaviy boshqaruvni samarali tashkil etishda raqamli iqtisodiyot imkoniyatlaridan keng foydalanish, ularni yanada rivojlantirish hamda xorijiy investorlar uchun qulay moliyaviy muhit yaratishga alohida e'tibor qaratish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, moliyaviy boshqaruv tizimisiz iqtisodiyotni takomillashtirish va uning barqaror rivojlanishini ta'minlash imkoniyati cheklangan bo'ladi. Korxona moliyasini boshqarish uning ijtimoiy va iqtisodiy faoliyat yo'nalishlari bilan uzviy bog'liq holda, korporativ moliyaviy munosabatlarni samarali tashkil etish orqali amalga oshiriladi. Shu nuqtai nazardan, korporativ tuzilmalarda moliyaviy resurslarning yetariligi, ularning maqsadli va oqilona sarflanishi hamda xarajatlar natijadorligini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Korporativ tuzilmalarning faoliyatini faqat o'z mablag'lari hisobiga tashkil etish bilan cheklanish kelgusida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlarini qisqartirishi mumkin. Shu sababli, korporativ moliyani boshqarish jarayonida yangi loyihalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish, shuningdek, faoliyatni diversifikatsiyalash masalalariga doimiy e'tibor qaratish hozirgi iqtisodiy sharoitning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, korporativ tuzilmalarda moliyaviy boshqaruvni samarali tashkil etishda moliya bozorini rivojlantirish, uning ustuvor yo'nalishlarini keng joriy etish hamda kapital va fond bozori instrumentlaridan faol foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayonlar iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qilishi bilan bir qatorda, korxona va korporatsiyalarning qo'shimcha moliyaviy resurslarni jalb etish imkoniyatlarini kengaytiradi va ularning investitsion jozibadorligini oshirishga zamin yaratadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Elmirzayev S.E. Korporativ boshqaruv. – Toshkent: “Zebo-Press”, 2021. – 249 b.
2. Elmirzayev S.E. Korporativ moliya. Darslik. – Toshkent: “Iqtisod-moliya”, 2019.
3. Dallochio M. Corporate Finance: Theory and Practice. – USA: Wiley, 2014. – 29 p.
4. Ross S.A., Westerfield R.W., Jordan B.D. Fundamentals of Corporate Finance. – New York: McGraw-Hill/Irwin, 9th edition, 2010. – 438 p.
5. Quiry P., Dallochio M., Le Fur Y., Salvi A. Corporate Finance: Theory and Practice. – Chichester, West Sussex: John Wiley & Sons Ltd, 2005. – 443 p.
6. Savchenko N.L. Korporativ moliya. O'quv elektron matnli nashr. – Yekaterinburg, 2017. – 11 b.
7. O'zbekiston Qimmatli qog'ozlar Markaziy depozitariysi. Yangiliklar va statistika. – Telegram kanali: t.me/UzCSD
8. World Economic Forum. What are green bonds and how do they help fight climate change? – 2024-11.
Manba: www.weforum.org

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100